

HAMID OLIMJON VA G.MUSHELNING "MUQANNA" MUSIQALI DRAMMASIGA BIR NAZAR

Рузметов Темурабек Улуғбекович
Ўзбекистон давлат консерваторияси

Oldingi ilmiy maqolalarimizda ham Hamid Olimjon timsoli, uning adabiyot hamda san'at soxalarida tutgan o'rni, adibning ijodiy merosi, ummuman olganda Hamid Olimjon timsolida adabiyot va san'at birlashuvini ko'rib chiqqan edik. Endi Hamid Olimjonning ijodiy merosiga chuqurroq sho'ng'ishga qaror qildik. Uning boy va sarmazmun ijod xazinasidan istalgan muhlis o'ziga katta zavq va qiziqishlar undirib oladi.

Shunday ekan biz adibning drama janridagi ijodiga tegishli asari "Muqanna"ni san'atimizdagi o'rni va mazmun mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz.

"Muqanna" mavzusi XX asrda juda ko'p eslanishiga guvoh bo'lamiz. "Muqanna" o'sha paytning ijtimoiy siyosiy, xalqning vataniga bo'lgan muhabbat ruhini oshirish, ikkinchi jahon urushi yillarida jang maydonlarida kurashayotgan va mehnat jabhalarida faoliyat olib borayotgan xalqni jasorat va qahramonlikka chorlash maqsadida, davrning ijtimoiy buyurtmasi sifatida yozilgani aytiladi. Ammo shoir Muqanna qo'zg'oloniga bag'ishlangan sahna asarini yozishga 1937-yildayoq kirishgani va hatto o'sha yili asarning birinchi pardasini yozib tugatgan To'g'ri, 1937-yilda shoir ustida ham qatag'on bulutlarining to'planishi bilan u asar ustidagi ishni to'xtatib qo'ygan va 1942-yilning boshlarida asarga qayta kirishib, o'sha yilning 12-fevralida birinchi pardaning yangi nusxasini yozib tugatgan. 1942-yil 31-mayda esa asar ustidagi ish uzil-kesil yakunlangan.

Mutaxassislarining fikricha, Hamid Olimjonda ushbu asar g'oyasining paydo bo'lishi S.Ayniyning "Muqanna qo'zg'oloni" tarixiy ocherki bilan bog'liq.

Muqanna saxnaviy asarining musiqa mualliflari kompozitor G.Mushel va bastakor Y.Rajabiy hisoblanib, ko'plab xalq kuylaridan va maqom yo'llaridagi ohanglardan unumli foydalanilgandir.

Musiqali drama 2 ko'rinishdan iborat: birinchi ko'rinishda Muqanna obrazi xalq manfaatini ko'zlaydigan asl mard o'g'lon, dovyurak inson sifatida namoyon bo'ladi. Uning ijrosida yangraydigan qo'shiq va ariyalarda xalq kuylari va maqomlariga xos mardonavor sifatlar yaqqol bilinib turadi. Shu o'rinda bastakorlar "Mustazodi Navo", "Savti Ushshoq" kabi mumtoz maqom yo'llaridan unumli foydalanadilar. Ikkinchi parda esa Muqanna obrazi - arab istilochilariga qarshi olib borilgan janglarda g'alaba qozongan lirik qahramon sifatida tasvirlanadi. Uning Vataniga yori- Guloyimga bo'lgan muhabbati musiqiy lavha va ariyalarda gavdalanadi. Ana shunday markaziy ariyalardan biri mashhur H.A.Abdurasulovning "Samarqand Ushshog'i" yo'lga asoslangan

Muqanna va Guloyim obrazi. Muqanna aksar tarixiy manbalarda soxta payg'ambar sifatida tasvirlangan. Guloyim Muqannaning vafoli va kuchli sadoqat timsolidagi yori sifatida gavdalanadi. Narshaxiy singari tarixchilar o'zlari mansub bo'lgan ijtimoiy qatlamning dunyoqarashidan kelib chiqib, Muqannani qandaydir lo'ttibozi sifatida talqin etganlar. Holbuki, Muqanna qo'zg'oloni feodal jamiyatning turli-tuman qatlamlarini o'zida birlashtirgan ulkan xalq harakati edi. Bu harakat o'zidan yuz yil muqaddam O'rta Osiyo va Movarounnahr cho'llariga o'tkazilgan hamda mahalliy xalqning qoni bilan sug'orilib turgan islomning hali nimjon niholini tag-tomiri bilan sug'urib tashlashiga oz qolgan. Milliy ozodlik kurashibayrog'i ostida o'tgan bu harakat arab bosqinchilari olib kelgan davlat tuzumini qariyb o'n besh yil mobaynida larzaga keltirib turgan.

Вступление
"Муқанна"

The image shows a musical score for the introduction of 'Muqanna'. It consists of two staves. The top staff is labeled 'Piano' and the bottom staff is labeled 'Pno.'. The tempo is marked 'Andantino'. The score is written in 3/4 time and features a complex rhythmic pattern with many chords and melodic lines. The key signature is one flat (B-flat). The score starts with a treble clef and a common time signature (C). The first staff has a 5-measure rest at the beginning. The second staff has a 5-measure rest at the beginning. The score ends with a double bar line.

Ushbu misolda asarning kirish musiqasini klavirlashgan nota misolini keltirib o'tganmiz. Unda urush muhitini tasvirlovchi xarakter beriladi, jadalik, shahdam harakat, to'liq akkordika bir-birini to'ldirib turadi. Bizda ushbu nota misolini to'liq varianti bo'lmaganligi sababli shu qisqa variant misolini keltirib o'tishni joiz topdik.

Birinchi pardadagi Muqanna ariyasi ham kompozitsion jixatdan xarakterli. Kuyda harakatning ravonligini pauzalar bilan bilinib turuvchi va o'zbek xalq ijrochiligidagi o'zbekona qochirimlar, rivojlanishida esa o'zbek qo'shiqlariga xos sinkopali ritmlarga katta o'rin egallagan.

"Muqanna" ning ayrim kuylarida usulning keskin almashinib turishi ko'rinadi. Jumladan, birinchi pardada Muqanna bilan Guloyimning xor bilan birgalikda aytadigan duetida usullarning almashinib turishi bilinadi. Asardagi xorlar ham alohida harakterga ega. Bunda tipik ritm siljishlar va lad tonligining almashinib turishi hollari mavjud. Guloyimning "Naylagayman" qo'shig'i markaziy nomerlardan biri hisoblanib, o'zining ulkan ifodaviyligi bilan ajralib turadi. Unga qarama qarshi esa Muqannaning qo'shiqlari chorlash hamda xalqni isyon qilish harakteriga egadir. Keyingi xor qo'shig'ida dushmanlar shafqatsizligiga qarshi xalqning nafratini ifodalanadi. Muqannaning qo'shiqlari asosan Shashmaqom

kuyleri zaminida yaratilgan. Asardagi Hoji Abdulaziz kuyi "Buzurgoniy" kompozitor tafakkuri bilan boyitilgan.

Meni beqarorlar aylagan, (jonimdan),
Netay, ul pari ko'zu qoshidur,
Yuragimga ishq o'tin jonlagan, (o'rgilaman o)
Aning mahfiyona qaroshidur.

Bevosita Muqanna obraziga diqqat qilsak, uning jasorat va yovga qarshi chiqishini quydagi misralarda ifodalangan:

Ko'ngil dardu g'amin, ojiz bo'lib, izhor etib turma,
Yalinma izlaringa bosh urib, ko'ksingni qalqon qil.
Fig'on ohu nolangni yengib, dardini unutma butkul,
G'azab birla otib tosh, ul qaro bag'rini sen qon qil.
Qilich ol qo' lga endi ham quvib chiq yovni yurtingdan
Qirib bul jang aro har kor-boridan xushaymon qil.

Bu misralar ana shu sovuq urush taftida yozilgan bo'lib, bu satrlar faqatgina Muqanna jasoratini emas, balki jangdagi barcha jangchilar(insonlar), hususan o'zbek o'g'lonlariga ham qarata aytilgan.

Hamid Olimjon, G.Mushel hamda Y.Rajabiy tomonidan ijod etilgan ushbu musiqiy durdona asari o'z davrida eng nufuzli maqtovlarga, xalq hayotida vatanga muhabbat ruhini shakllantira oldi, boshqacha qilib aytganda musiqiy drama o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadiga to'laqonli erishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M. Ahmedov. Yunus Rajabiy. G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti
2. A. Jabborov. Musiqali drama va komediya janrlari O'zbekiston Kompozitorlarning ijodyotida.
3. Internet manbalari.